



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **O'QUVCHILARDA KIBERSAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Abdualimov Oxunjon Ulug'bek o'g'li**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktorant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida o'quvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularda xavfsiz va mas'uliyatli raqamli xulq-atvorni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda kibersavodxonlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari, pedagogik va psixologik yondashuvlar hamda didaktik prinsiplar yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish jarayonida axborot xavfsizligining asosiy prinsiplari va ijtimoiy omillarning o'rni asoslab berilgan. Maqola natijalari ta'lim jarayonida kibersavodxonlikni samarali shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kibersavodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, ta'lim jarayoni, kompetentlik yondashuvi, didaktik prinsiplar, o'quvchilar, internet xavfsizligi, raqamli muhit.

## **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КИБЕРГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ**

**Абдуалимов Охунжон Улугбек угли**

Джизакский государственный педагогический университет, докторант

### **Аннотация**

В данной статье анализируются теоретические основы формирования киберграмотности у учащихся. В условиях современного цифрового общества важное значение приобретает обеспечение информационной безопасности учащихся, развитие у них безопасного и ответственного цифрового поведения. В исследовании освещены содержание понятия киберграмотности, его компоненты, педагогические и психологические подходы, а также дидактические принципы. Также обоснованы основные принципы информационной безопасности и роль социальных факторов в процессе формирования киберграмотности у учащихся. Результаты статьи послужат разработке научно-практических рекомендаций по эффективному формированию киберграмотности в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** киберграмотность, информационная безопасность, цифровая грамотность, процесс обучения, компетентностный подход, дидактические принципы, студенты, интернет-безопасность, цифровая среда.

## **THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING CYBER LITERACY AMONG STUDENTS**

**Abdualimov Okhunjon Ulug'bek o'g'li**

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral student

### **Abstract**

This article analyzes the theoretical foundations of developing cyber literacy in students. In the modern digital society, ensuring students' information security and developing safe and responsible digital behavior is of great importance. The study examines the content of the concept of cyber literacy, its components, pedagogical and psychological approaches, and didactic principles. The main principles of information security and the role of social factors in the process of forming cyber literacy in students are also substantiated. The results of the article will serve to develop scientific and practical recommendations for the effective formation of cyber literacy in the educational process.

**Keywords:** cyber literacy, information security, digital literacy, learning process, competency-based approach, didactic principles, students, internet security, digital environment.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi jamiyat hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimi ham mazkur o'zgarishlardan chetda qolmay, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, elektron resurslardan samarali foydalanish hamda o'quvchilarni zamonaviy axborot

makonida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish muammosi pedagogika nazariyasi va amaliyotida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli muhitning kengayishi, internet tarmoqlari va ijtimoiy platformalardan faol foydalanish o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, turli xil kiberxavflar — axborot xavfsizligining buzilishi, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, kiberbulling, fishing va zararli dasturiy ta'sirlar kabi tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Mazkur holatlar o'quvchilarda nafaqat axborotdan foydalanish ko'nikmalarini, balki uni tanqidiy baholash, xavflarni oldindan aniqlash va ulardan himoyalanih kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kibersavodxonlik tushunchasi ko'p qirrali va integrativ xarakterga ega bo'lib, u axborot savodxonligi, raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi elementlarining o'zaro uyg'unlashuvini ifoda etadi. Shu bilan birga, mazkur tushuncha faqat texnik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy xulq-atvori, huquqiy ongi va mas'uliyatli raqamli faoliyatini ham qamrab oladi. Demak, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, global raqamlashuv jarayonlari sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan, ikkinchi tomondan esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish ehtiyoji bilan belgilanadi. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixofiziologik rivojlanish darajasi va ijtimoiy muhiti ularda kibersavodxonlikni shakllantirishning o'ziga xos yondashuvlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi — o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning samarali tashkil etilishiga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kibersavodxonlik tushunchasining mazmunini ochib berish, uning tarkibiy komponentlarini tahlil qilish, pedagogik va psixologik yondashuvlarni asoslash hamda didaktik tamoyillarni belgilash vazifalari qo'yiladi.

Shu tariqa, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, u shaxsning raqamli jamiyatda xavfsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

#### ASOSIY QISM

O'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish masalasi ko'p qirrali ilmiy muammo sifatida pedagogika, psixologiya va axborot xavfsizligi sohalarini kesishmasida o'rganiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi uning nazariy asoslarini chuqur anglash, mazmun-mohiyatini aniq belgilash va amaliy ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish bilan bog'liq.

Avvalo, kibersavodxonlik tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, u o'quvchining raqamli muhitda axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, uzatish va xavfsiz foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oluvchi integrativ kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Uning tarkibiy tuzilmasi odatda kognitiv (bilim), operatsion (ko'nikma va malaka) hamda aksiologik (qadriyat va munosabat) komponentlardan iborat deb qaraladi. Kognitiv komponent axborot xavfsizligi, internet tarmoqlari va raqamli texnologiyalar haqidagi nazariy bilimlarni qamrab olsa, operatsion komponent amaliy faoliyat jarayonida ushbu bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Aksiologik komponent esa o'quvchining raqamli muhitdagi xulq-atvori, mas'uliyat hissi va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida kiberxavfsizlik bevosita "axborot xavfsizligi" tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunda axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish, ularning ishonchligi va barqaror ishlashini ta'minlash masalalari belgilangan [2]. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa axborotdan foydalanish huquqi bilan bir qatorda uni himoya qilish talablari ham aniq ko'rsatib berilgan [3].

Mazkur qonunlarda kiberxavfsizlik axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash bilan bog'liq asosiy talab sifatida qaraladi. Milliy strategiyalarda ham kiberxavfsizlik alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bilan birga, kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash vazifasi qo'yilgan. Davlat organlarida elektron hukumat tizimini joriy etish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash asosiy shart sifatida belgilangan [1].

Milliy tadqiqotchilar kiberxavfsizlikni quyidagicha talqin qiladilar: axborot tizimlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimi, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash va muhofaza qilish jarayoni hamda raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish madaniyati. Masalan, Yuldashev Z.Z. o'z

ishlarida kiberoxavsizlikni “axborot resurslarining tashqi ta’sirlardan himoyalanganlik holati” sifatida izohlaydi [5].

Kibersavodxonlikni shakllantirishda kompetentlikka asoslangan yondashuv yetakchi o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchilarda real hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Masalan, o‘quvchi faqat kiberoxavflar turlari haqida bilib qolmasdan, balki fishing xabarlarini aniqlash, ishonchli parollar yaratish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni mustaqil bajara olishi kerak.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa o‘quvchilarni bevosita raqamli muhitda faol ishtirok ettirish orqali bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda keys-stadi, muammoli vaziyatlar, simulyatsiya va loyiha ishlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga shartli ravishda kibershujum ssenariylari taqdim etilib, ulardan xavflarni aniqlash va tegishli himoya choralarni ishlab chiqish talab etiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv kibersavodxonlikni shakllantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olish zaruratini asoslaydi. Ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun axborot xavfsizligi qoidalarini sodda va vizual usullarda tushuntirish muhim bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun murakkab tahlil va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, kibersavodxonlikni rivojlantirish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va tahlil qilish, shuningdek, xavfni idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Raqamli muhitdagi axborot oqimining kattaligi va turli manbalarning ishonchlilik darajasi turlicha ekanligi o‘quvchilardan yuqori darajadagi kognitiv faollikni talab qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish, ya’ni axborot manbalarini tanqidiy baholash va feyk axborotlarni ajrata bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kibersavodxonlik mazmuni axborot xavfsizligining fundamental prinsiplari — maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik (CIA triadasi)ga tayanadi. Ushbu prinsiplarni o‘quvchilar ongiga singdirish ularda axborotga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Masalan, shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik maxfiylikni ta’minlasa, axborotni o‘zgartirmasdan saqlash yaxlitlikni, tizimlardan o‘z vaqtida foydalanish esa mavjudlikni ifodalaydi.

Didaktik jihatdan, kibersavodxonlikni shakllantirish jarayoni tizimlilik, izchillik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Bu esa ushbu kompetensiyalarni boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirishni talab etadi. Shu bilan birga, amaliy yo‘naltirilganlik va interaktivlik prinsiplari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki o‘quvchilar real hayotga yaqin vaziyatlarda faol ishtirok etish orqali bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ijtimoiy omillar — oila muhiti, ta’lim muassasasi, tengdoshlar ta’siri va ommaviy axborot vositalari — o‘quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ota-onalar va o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, internetdan foydalanish madaniyati va nazorat mexanizmlari o‘quvchilarning raqamli xulq-atvorini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, o‘quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish nazariy jihatdan asoslangan, ko‘p bosqichli va integrativ jarayon bo‘lib, u pedagogik yondashuvlar, psixologik xususiyatlar va axborot xavfsizligi prinsiplarining uyg‘unlashuvini talab etadi.

O‘quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta’lim nazariyasida kompleks va integrativ yondashuvni talab etuvchi ilmiy muammo sifatida qaraladi. Ushbu tushunchaning mazmuni va mohiyatini aniqlashda xorijiy va milliy tadqiqotchilarning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Paul Gilster kibersavodxonlikni “raqamli muhitda axborotni tushunish va undan samarali foydalanish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi [10]. Ushbu ta’rif kibersavodxonlikning faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklanmasdan, balki axborotni tanqidiy idrok etish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigComp modelida raqamli kompetensiya “axborot va ma’lumotlar bilan ishlash, muloqot qilish, kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlari majmuasi” sifatida izohlanadi [8]. Bu esa kibersavodxonlikning tarkibiy tuzilmasi ko‘p qirrali ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida o‘quvchilarni real raqamli vaziyatlarga jalb etish muhim hisoblanadi. Henry Jenkins ta’kidlaganidek, “zamonaviy ta’lim ishtirokchi madaniyatga mos ravishda o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirishi lozim” [12]. Bu esa kibersavodxonlikni shakllantirishda interaktiv va amaliy metodlarning ahamiyatini asoslaydi. Psixologik jihatdan, kibersavodxonlik o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liq. Manuel Castellsning fikricha, “axborot jamiyatida asosiy qiymat axborotni qayta ishlash va undan

foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi” [11]. Demak, o‘quvchilarni axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish topishga o‘rgatish muhim ilmiy vazifadir.

Kybersavodxonlik mazmuni axborot xavfsizligining fundamental prinsiplariga ham tayanadi. Jumladan, International Telecommunication Union tomonidan ta‘kidlanganidek, “onlayn muhitda bolalarni himoya qilish ularni xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalari bilan ta‘minlash orqali amalga oshiriladi” [9]. Bu esa o‘quvchilarda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, xavfli vaziyatlarni aniqlash va ularga to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Didaktik jihatdan, kybersavodxonlikni shakllantirish jarayoni tizimli va uzluksiz bo‘lishi lozim. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda “raqamli savodxonlik ta‘limning barcha bosqichlarida izchil ravishda rivojlantirilishi kerak”, deb ta‘kidlanadi [7]. Bu esa mazkur jarayonni bosqichma-bosqich tashkil etishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu tariqa, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kybersavodxonlikni shakllantirish ko‘p omilli va integrativ jarayon bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar, psixologik xususiyatlar va axborot xavfsizligi prinsiplarining uyg‘unlashuvini talab etadi.

O‘quvchilarda kybersavodxonlikni shakllantirish zamonaviy pedagogikada murakkab, ko‘p qirrali va integrativ jarayon sifatida qaraladi. Uning nazariy asoslarini ochib berishda xorijiy va milliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Avvalo, Paul Gilster kybersavodxonlik tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “Digital literacy is the ability to understand and use information in multiple formats from a wide range of sources when it is presented via computers” [10]. Ushbu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, kybersavodxonlik faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki axborotni anglash va turli manbalardan samarali foydalanish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Shuningdek, European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigComp Frameworkda raqamli kompetensiyalar quyidagicha ta‘riflanadi: “Digital competence involves the confident, critical and responsible use of digital technologies for learning, work and participation in society” [7]. Bu ta‘rif kybersavodxonlikning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, kybersavodxonlikni shakllantirishda kompetentlikka asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan biri ta‘kidlaydi: “Ta‘lim jarayonida o‘quvchining faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi” [6]. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda kiberxavfsizlikni shakllantirish zamonaviy ta‘lim tizimida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u raqamli jamiyat sharoitida shaxsning xavfsiz, mas‘uliyatli va ongli faoliyat yuritishini ta‘minlashga qaratilgan. Bu jarayonda an‘anaviy tushuntirish usullaridan tashqari, innovatsion pedagogik va texnologik yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda.

### **1. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv**

Bu yondashuvda asosiy e‘tibor bilimga emas, balki amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratiladi. O‘quvchilar kiberxavflarni aniqlay olish, fishing va ijtimoiy injeneriyani tanish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish kabi amaliy malakalarni egallaydilar.

### **2. Muammoli va keys-stadi yondashuvi**

O‘quvchilarga real yoki modellashtirilgan kibervaziyatlar taqdim etiladi. Masalan, buzilgan akkaunt holati, firibgarlik xatlari yoki virusli fayllar tahlil qilinadi. O‘quvchilar ushbu vaziyatni o‘rganib, yechim topadilar. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

### **3. Loyihaga asoslangan ta‘lim (Project-Based Learning)**

O‘quvchilar guruhlarda “Kiberxavfsizlik bo‘yicha qo‘llanma”, “Maktab uchun xavfsiz internet siyosati”, “Fishingga qarshi axborot kampaniyasi” kabi loyihalarni amalga oshiradilar. Bu yondashuv hamkorlik va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

### **4. Simulyatsiya va interaktiv platformalar**

Zamonaviy texnologiyalar asosida virtual laboratoriyalar, kiberhujum simulyatorlari va interaktiv trenajyorlar qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarga xavfsiz muhitda real tajriba olish imkonini beradi.

### **5. Media va axborot savodxonligi bilan integratsiya**

Kiberxavfsizlik mediasavodxonlik bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatiladi. O‘quvchilar feyk axborotni ajrata olish, manbalarni tahlil qilish va ishonchli ma‘lumot tanlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

### **6. Xulq-atvorga asoslangan yondashuv**

Bu yondashuvda asosiy maqsad xavfsiz raqamli odatlarni shakllantirishdir. Jumladan, kuchli parollardan foydalanish, shubhali havolalarni ochmaslik va shaxsiy ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik kabi odatlar mustahkamlanadi.

### **7. O‘yinlashtirish (Gamification)**

Ta'lim jarayoni o'yin elementlari bilan boyitiladi. Ball tizimi, reyting, missiyalar va topshiriqlar o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish pedagogik, psixologik va axborot xavfsizligi komponentlarining uyg'unlashuviga asoslanadi. Iqtiboslar orqali asoslangan nazariy yondashuvlar mazkur jarayonning ilmiy asoslangan va kompleks xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish masalasi zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kibersavodxonlik o'ziga xos integrativ xususiyatga ega bo'lib, u axborot savodxonligi, raqamli kompetensiya va axborot xavfsizligi elementlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Shu bois, mazkur jarayonni samarali tashkil etish kompleks yondashuvni, ya'ni pedagogik, psixologik va texnologik omillarning o'zaro bog'liq holda qo'llanilishini talab qiladi. Tahlillar asosida aniqlandiki, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirishda kompetentlikka asoslangan, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga qaratilgan yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishi lozim. Bunda ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish, ularni real raqamli vaziyatlarga yaqinlashtirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kibersavodxonlikni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va xavflarni baholash qobiliyatlarini shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Axborot xavfsizligining fundamental prinsiplari — maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik — o'quvchilarda xavfsiz raqamli xulq-atvorni shakllantirishning nazariy poydevori sifatida xizmat qiladi. Didaktik nuqtayi nazardan, kibersavodxonlikni shakllantirish jarayoni tizimlilik, izchillik, uzluksizlik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi lozimligi ta'kidlandi. Bunday yondashuv o'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni bosqichma-bosqich va mustahkam shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish, raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish va o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, kibersavodxonlikni shakllantirish jarayoniga ijtimoiy muhit omillari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oila, ta'lim muassasasi va keng jamoatchilik tomonidan yaratilgan axborot madaniyati o'quvchilarning raqamli xulq-atvorini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur jarayonda barcha manfaatdor subyektlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda kibersavodxonlikni shakllantirish ilmiy jihatdan asoslangan, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon bo'lib, u zamonaviy ta'lim mazmunini takomillashtirishning muhim omilidir. Kelgusida mazkur yo'nalishda tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va amaliy metodikalarni ishlab chiqish kibersavodxonlikni rivojlantirish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2002.
4. Abduqodirov A. A., Parpiyev A. T. Axborot texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Yuldashev Z. Z. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Rahimov O. X. Pedagogik texnologiyalar va kompetentlik yondashuvi. – Toshkent, 2020.
7. UNESCO. Digital Literacy Global Framework (DLGF). – Paris, 2018.
8. European Commission. DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. – Brussels, 2017.
9. International Telecommunication Union. Guidelines for Child Online Protection. – Geneva, 2020.
10. Gilster P. Digital Literacy. – New York: Wiley, 1997.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
12. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture. – MIT Press, 2009.
13. OECD. Students, Computers and Learning: Making the Connection. – Paris, 2015.